



АКТУАЛЬНЫЕ ВЫЗОВЫ СОВРЕМЕННОЙ НАУКИ

СБОРНИК НАУЧНЫХ ТРУДОВ

Выпуск 6(60)

Переяслав
2021



АКТУАЛЬНЫЕ ВЫЗОВЫ СОВРЕМЕННОЙ НАУКИ

LX Международная научная конференция
26-27 июня 2021 г.

СБОРНИК НАУЧНЫХ ТРУДОВ

ВЫПУСК 6(60)

Переяслав

Abjalova Manzura Abdurashetovna, Sunnat Bozorov
(Toshkent, O'zbekiston)

KVAZISINONIMLAR NUTQIY IMKONIYAT SIFATIDA

Annotatsiya. *Ma'lumki, sinonim so'zlar nutqni jazibador, ravon, uslubiy g'alizliklarsiz shakllantirishda unumli qo'llaniladigan ma'nodosh so'zlar hisoblanadi. Sinonimlar yordamida matnda muayyan so'zning takror qo'llanilishining oldi olinadi. Shu bois sinonimlarda ifoda emas, semantika birlamchi sanaladi. Ko'plab tadqiqotlarda lug'aviy sinonimlar o'rganilgan, jumladan, ularning lingvopragmatik xususiyatlari, nutqiy voqelanishi, matn tuzishda leksik sinonimlarning uslubiy imkoniyatlari tadqiq etilgan.*

Xorij tilshunosligida kvazisinonimlar atamasi faol qo'llanishda bo'lib, mazkur maqolada ular to'g'risidagi ma'lumotlar batafsil yoritilgan.

Kalit so'zlar: *sinonimlar, kvazisinonimlar, ma'nodoshlar, termen element.*

Аннотация. *Общеизвестно, что синонимы – это слова совпадающее или близкое по значению с другим словом, которые эффективно используются при формировании речи выразительно, без стилистических сложностей. Синонимы предотвращают повторение слова в тексте. Следовательно, в синонимах первична семантика, а не выражение. Многочисленные исследования изучали лексические синонимы, включая их лингвопрагматические особенности, речевые события и стилистические возможности лексических синонимов при написании текста. Термин квазисинонимы активно используется в зарубежной лингвистике, и в данной статье они описаны подробно.*

Ключевые слова: *синонимы, квазисинонимы, терминологический элемент.*

Abstract. *It is well known that synonyms are words that coincide or are close in meaning to another word, which are effectively used in the formation of speech expressively, without stylistic difficulties. Synonyms prevent repetition of a word in the text. Therefore, in synonyms, semantics is primary, not expression. Numerous studies have examined lexical synonyms, including their linguo-pragmatic features, speech events, and the stylistic possibilities of lexical synonyms when writing text. The term quasi-synonyms is actively used in foreign linguistics, and in this article they are described in detail.*

Keywords: *synonyms, quasi-synonyms, term element.*

Kirish

Kompyuter texnologiyalari orqali tabiiy tildagi matnlarni qayta ishlash uchun har bir lingvistik birlik tabiati, xususiyati va nutqiy voqelanishdagi uslubiy hamda semantik imkoniyatlarini o'rganish talab etiladi. Bunday holda tabiiy til mukammal darajada qayta ishlanadi (NLP). Natijada mashina tarjimasini, avtomatik semantik tahlil, parsing (sintaktik tahlil), antiplagiat (matnli hujjatlarda manbalardan havolasiz tarzda ko'chirmachilikka yo'l qo'yilgan holatlarni aniqlash dasturiy ta'minoti), sinonimayzer [1], lingvistik ontologiyalar, tezaurus lug'atlar [2], matnlarni avtoreferatlash kabi dastur va tizimlarning yaratilishiga

erishiladi. Mazkur dasturiy vositalar lingvistik ta'minotida sinonimlar bazasini shakllantirish eng muhim bosqichlardan hisoblanadi.

Lingvistik ontologiya va tezauruslar uchun sinonimlar bazasi – sinsetlar, asosiy tarkibiy element hisoblanadi. Shuning uchun birlamchi zaruriy baza sifatida sinonimlardagi semantik yaqinlik, ularning bir-biri bilan va boshqa tushunchalar bilan munosabatlarini aniq tasvirlash, yaqin tushunchalar o'rtasidagi farqlarni aniqlash muhim sanaladi. Mavjud tadqiqotlar o'rganilganda, ularda, asosan, lug'aviy sinonimlar va o'zbek tili leksik sinonimlarining lisoniy va nutqiy munosabati, ularning leksikografik tadqiqi amalga oshirilgan [10], ularning pragmatik xususiyatlari, konnotativ jihatlarini tadqiq qilingan, sinonimik qatorlarning graduonimik darajalanishi aniqlangan [4; 5; 6; 7; 8; 9].

Ma'lumki, sinonimlar 2 yirik turda farqlanadi: lug'aviy (leksik) sinonimlar va kontekstual sinonimlar. Lug'aviy sinonimlar, o'z o'rnida, to'liq (absolut) va qisman (semantik, uslubiy va uslubiy-semantik) sinonimlarga ega. Lug'aviy sinonimlar so'zlar semantikasidagi o'zaro yaqinlik va muvofiqlik natijasida ma'nodoshlikni hosil qilsa, kontekstual sinonimlar matn tarkibidagina yuzaga kelgan lug'aviy muvofiqlik orqali yuzaga keladi.

Kontekstual yoxud matniy sinonimlar mualliflik sinonimlari deb ham ataladi [16], ular, asosan, faqat ma'lum bir kontekst sharoitida ma'nodoshlikni yuzaga keltiradi, kontekstdan tashqarida ular sinonimlar bo'lolmaydi. Ularning asosiy vazifasi hodisani nomlash emas, balki uni tavsiflash hisoblanadi. Shu bois matniy sinonimlar lug'atini yaratish bir muncha murakkab jarayon sanaladi [16].

Lug'aviy sinonimlarga mansub yana bir tur sinonimlar borki, manbalarda ular kvazisinonimlar, deb nomlanadi.

“kvazi-” termin elementi etimologiyasi va qo'llanilishi.

“kvazi-” termin elementi lotin tiliga mansub bo'lib, *xayoliy*, *haqqoniy emas*, *soxta*, *xayoliy* degan tushunchalarni anglatadi. XVIII asrda cherkov terminologiyasida “yolg'on” ma'nosida foydalanilgan. Rus tiliga XIX asrda kirib kelgan bo'lib, mazkur prefiks (rus tilida *pristavka* deyiladi) ot so'z turkumiga mansub tasavvur qilingan narsa, haqiqatdan yiroq hodisani ifodalashda faol qo'llanilgan. Ushbu o'zlashma prefiks yordamida, asosan, tibbiyot, tabiiy va ijtimoiy fanlarga oid so'zlar hosil qilingan. XIX asr oxiriga kelib, san'at, adabiyot va ilm-fan sohalarida foydalanila boshlangan. XX asrning 2-yarmiga kelib tilshunoslik terminologiyasida qayd etilgan.

“kvazi-” termen elementi “soxta, xayoliy”; soxtalik, belgining faolligini bildiradi; soxta idrokning ma'nosini ko'proq ifoda etadi; nomlangan obyektning holatini tavsiflaydi. Ayrim manbalar [11; 12; 13]da “kvazi-” “deyarli, taxminan” kabi ma'nolarni anglatishi yozilgan.

U, asosan, quyidagi hollarda ishlatiladi: a) fizika va turdosh fanlarning atamalarini shakllantirish (*kvazibo'lak* – *квazичастица*, *kvaziyulduz* – *квazизвезда*) b) iqtisodda (*kvazibozor* – *квazирынок*, *kvazisotsialist* – *квazисоциалист*) [15].

Kvasinonimlar (soxta sinonimlar, qisman ma'nodoshlar [12]) ma'no jihatidan nisbatan yaqin, ammo hamma vaziyatlarda ham bir-birining o'rnini bosa olmaydigan so'zlar hisoblanadi.

Kvazisinonimlarning quyidagi turlari farqlanadi [15]:

1. Bir-biriga o'xshash ma'noga ega bo'lgan kvazisinonim atamalar, masalan: *uy* – *bino*, *iste'dod* – *dahollik*;

2. Bir soʻzning maʼnosi va koʻlami boshqa sohaga ham tegishli boʻlgan qisman sinonimlar, masalan: *metall – temir*;

3. Qarama-qarshi semantikaga ega soʻzlarning nutqiy voqelanish jarayonida maʼnodoshlar tarzida qoʻllaniladigan sinonim soʻzlar (bitta hodisaning miqdoriy xususiyatlari kabi), masalan: *qattqlik – yumshoqlik, shaffoflik – qorongʻulik*.

Rus tilshunosi Lekant P.A. semantik sinonimlarni kvazisonimlar deydi va ularni 2 turga ajratadi [17]:

1. Lugʻaviy maʼnosi nisbatan maʼnodosh boʻlgan sinonimlar: *yoʻl – yoʻlak, kun – sutka, olib yurmoq – tashimoq*. Bunda har bir sinonim lugʻaviy maʼnoda oʻziga xos xususiyati bilan farqlanadi. Masalan, “ochkoʻz” va “ziqna” soʻzlarini toʻlaqonli bir-birini sinonim sifatida matn (kontekst)da almashtirish mumkin, ammo sinonimlar lugʻatida sinonimik qatorga qoʻyib boʻlmaydi.

2. Faqatgina kontekstda bir-birining oʻrnini bosadigan, tur-jins munosabatlari, yaʼni tur va jins tushunchalarini bildirgan sinonim soʻzlar. Masalan, *it – ovcharka – choʻpon it – doʻst, foydali qazilmalar – minerallar – metall – temir*.

Maʼlumki lugʻaviy sinonimlar, asosan, bir soʻz turkumiga mansub yaqin maʼnoli leksik birliklar sanaladi. Kvazisonimlar esa turli soʻz turkumlariga oid soʻzlarning maʼnodosh boʻlishi bilan ham yuzaga keladi. Masalan: *lemmatizatsiya* (soʻzning asos morfemasiga qadar tahlil qilinishi; asosning aniqlanishi) – (*N-ot*) ↔ *lemmatizatsiyalash* – (*V_h – feʼ_h*^{harakat nomi}); *regeniratsiya* (*N-ot*) ↔ *qayta tiklanish* (*V_h – feʼ_h*^{harakat nomi}); *dahshat* (*N – ot*) ↔ *zoʻr* (*Adj – sifat*) (ogʻzaki soʻzlashuv uslubida)

Qisman sinonimlar maʼno jihatdan yaqin boʻlsa-da, ammo ular har doim aynan biri oʻrnida ikkinchi qoʻllanib ketavermaydi. Bunday sinonimlar oʻrtasida birlashish va kesishish munosabatlari paydo boʻlishi mumkin. Birlashish munosabatida muayyan maʼnodosh soʻz oʻzining ikkinchi maʼnodoshiga tushunchani anglatishi jihatidan toʻliq muvofiq keladi. M-n: *bilmoq* ↔ *tanimoq*

Sinonimlar maʼnolarining kesishishi kvazisonimlar qatoridagi har bir soʻz maʼnosi oʻziga xos xususiyatga ega boʻlgan holda yuzaga keladi. M-n, *ochkoʻz* – oʻzga narsani egallab olish ishtiyoqiga berilib ketgan, *ziqna* – oʻzinikidan voz kechmaslik ehtirosiga berilib ketgan. Kvazisonimlarda uslubiy boʻyoqdorlik, yaʼni nutq uslublariga xoslanish ham boʻladi. Shu bois kvazisonimlardan, koʻp hollarda, badiiy matn tuzish jarayonida foydalaniladi: *tahdid – siyosat, tez – lahzada*.

Umumiy holda sinonimlar nutqda quyidagi maqsadlarda qoʻllaniladi, ayrim oʻrinlarda hatto zarur hisoblanadi:

Fikrni yanada aniqroq va toʻgʻri ifodalash (qiyos uchun: chet el va xorij)da;

Hissiy-emotsional rang berish, fikrni yorqinroq ifodalashda;

Tavtologiya (takror – bir gapda muayyan soʻzning takror qoʻllanishi)dan saqlanish maqsadida;

Matndagi qoʻshni jummalarni bogʻlash maqsadida sinonim soʻzlardan unumli foydalaniladi.

Xulosa qilib aytganda, nutqiy voqelanish jarayonidagi kvazisonimlar (qisman sinonimlar) maʼno jihatidan yaqin boʻlsa-da, turkumga xoslanishi turlicha boʻladi.

Kvazisinonimlarning semantik munosabatida birikish yoxud kesishish semalari mavjud bo‘ladi. Kvazisinonimlar semantik sinonimlar deb ham nomlanadi.

ADABIYOTLAR:

1. Abjalova M. O‘zbek tili Milliy korpusida sinonimayzer yoxud sinonimizatorni yaratish masalasi // O‘zbek milliy va ta’limiy korpuslarini yaratishning nazariy va amaliy masalalari / Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. 2021 yil 7 may. Elektron nashr / ebook. – Toshkent: ToshDO‘TAU, 2021. – 330 b. – B. 38-41.
2. Abjalova M., Sharipov E. O‘zbek tezaurus lug‘ati uchun sifat turkumi bazasini yaratish masalasi // Kompyuter lingvistikasi: muammolar, yechim, istiqbollar / Respublika ilmiy-texnik konferensiya to‘plami. Elektron nashr / ebook. – Toshkent: ToshDO‘TAU, 2021. – B. 189-193 b.
3. Hojiyev A. O‘zbek tili sinonimlarining izohli lug‘ati. – Toshkent: O‘qituvchi, 1974. – 308 b.
4. Orifjonova Sh. O‘zbek tilida lug‘aviy graduonimiya: Filol. fan. nomz.... diss. avtoref. – Toshkent, 1996.
5. Bozorov O. O‘zbek tilida darajalanish: Filol. fan. dokt.... diss. avtoref. – Toshkent, 1997.
6. Xudoyberdiyeva L.S. O‘zbek tilida nominativ birliklarning darajalanishi: Filol. fan. nomz.... diss. avtoref. – Toshkent, 2003;
7. Shirinova N. O‘zbek tilida predmetlik va belgi-xususiyat ma’nolarini farqlash vositalari: Filol. fan. nomz.... diss. avtoref. – Toshkent, 2009;
8. Djumabayeva J. O‘zbek va ingliz tillarida leksik graduonimiya: Filol. fan. dokt.... diss. avtoref. – Toshkent, 2016; va boshqalar.
9. Rahmonov G‘. O‘zbek tilida lug‘aviy sinonimiya va graduonimiyaning o‘zaro munosabati: Fals. dokt. (PhD) ... diss. avtoref. – Farg‘ona, 2019. – 55 b.
10. Daniyarov B. O‘zbek tili leksik sinonimlarining lisoniy va nutqiy munosabati, leksikografik tadqiqi: Fil.f.d. (DSC)... diss. avtoref. – Samarqand, 2019. – 69 b.
11. https://lingvistics_dictionary.academic.ru/1441/квazисинонимы_%5Влат.%3A_quasi_п очти%2С_приблизительно%5D
12. <https://ru.wiktionary.org/wiki/quasi>
13. <https://classes.ru/all-latin/dictionary-latin-russian1-term-18872.htm>
14. синонимы неполные – это... Что такое синонимы неполные? (academic.ru)
15. Квазисинонимы – Википедия (wikipedia.org)
16. <http://rusolimp.kopeisk.ru/leksik/?file=111>
17. <https://synonymonline.ru/synonyms.html>